

Умида  
АБДУАЗИМОВА

МАРВАРИДЛАРИМ

Сенга бу  
кўнглимни очдим



Umida ABDUAZIMOVA

# MARVARIDLARIM



Toshkent-2013  
"Chashma print"

UO‘K: 821.512.1

KBK: 86 (5A)

A16 U. Abduazimova

"Marvaridlarim" /she'rlar/ U. Abduazimova.

"Chashma print", 2013-160 bet

Bu kitobga shoira Umida ABDUAZIMOVAning

turmush tajribalari asosida to‘plangan

va qo‘shiqqa aylangan jajji she'rlari jamlandi.

UO‘K: 821.512.1

KBK: 86 (5A)

ISBN 978-9943-350-45-8

©Umida ABDUAZIMOVA

Original maket "Chashma print", 2013

## SO‘Z BOSHI

Ayolman, zebu ziynatlar ichida dur-u marvaridlarga ixlosim baland. Ehtimol, bunday taqinchoqlarimni qachonlardir misqollab to‘plaganim bitta "Jiguli" bahosiga sotib olganimdandir?..

Endi esa, yo‘llar ochilib, bozoru do‘konlarda bunday taqinchoqlar "sochilib" yotganini ko‘rsam, oldidan befarq o‘tib ketolmayman, sotib olishdan o‘zimni tutolmayman. Bir kuni bo‘ynimdagi marvaridlarim sochilib ketdi. Buni kimdir yaxshilikka,-dedi, kimdir esa g‘alati bosh chayqab, ko‘nglimni xijil etdi.Ularni terib olarkanman, bildimki, taqinchoqlarning sochilishi bor, demak, sanab, ipga tizish darkor.Ammo ularni har safar sanayman-u, sanoqdan adashaveraman. Hali u yer, hali bu yerdan topib, yangitdan ipga tizishga shoshaveraman. Bu yozganlarimni ham bejiz "Marvaridlarim" deb nomlamadim. Ularning qadri qanchaligini o‘zingiz baholarsiz, ammo mening bilganim—bunday yozishmalar ko‘ngil kechinmalarim, uchrashuv va suhbatlarim aro ko‘plab sochilib yotibdi. Ijodkorning qamchisi - qarsak, deydilar. Ularni idrok elagingizdan o‘tkazib, rost yozibdi, to‘g‘ri gap aytibdi, deb, menga xayrixoh bo‘lsangiz, ilhom chashmalarim mavjlanaveradi, avjlanaveradi...

*Muallif*

# MEN QUROL YASAMAYMAN

Men qurol yasamayman,  
Ishim yo‘q yoy-kamonda.  
Qo‘limga kelib tushar  
Ular dushman tomondan.

\* \* \*

Kim birovga qazir choh,  
O‘z bo‘yiga o‘lchasin.  
Kim zulmkor, et, ogoh,  
Qaqshatar o‘g‘ilchasin.

\* \* \*

Tepaga ilgarilar  
Kimsa yiqilib ko‘rsin.  
O‘ng ko‘zi kulsa agar,  
Chap ko‘zi yig‘lab tursin.

\* \* \*

Qo‘l yuvib yesang taom,  
Boy-badavlat etkazar.  
Yeb bo‘lib yuvsang, tamom  
Gunohlaring ketkazar.

\* \* \*

Sayrar qushcha bexabar  
Tashnalik azobidan.  
Panohtila, besabr  
Nafsning g'azabidan.

\* \* \*

Hayot qaynar bozorda,  
Bozorda shoh, gado bor.  
Sukunatdir mozorda,  
Hamma birdek barobar.

\* \* \*

Kuning farog'atlidir,  
Tuning halovatlidir.  
G'am-firoq ko'rmayin hech  
Deb, kibr-u havodan kech.

\* \* \*

Tog' yonida qichqirib,  
Nimani aytdim,  
Aks-sado bo'lib keldi  
O'zimga qaytib.

\* \* \*

Ozga qilmoq qanoat  
Badavlatlikka da'vat.  
Qumni ham etar oltin  
Ko'tarinki kayfiyat.

\* \* \*

Shogirdning qalb izhori,  
Ustoz uchun izzat taxt.  
Ustozning iftixori,  
Bayramona kayfiyat.

\* \* \*

Ezmalanma ezilib,  
Siring, sirting sezilib.  
So'ng ezmaga elanib,  
Yurma obro' tilanib.

\* \* \*

Eslayverib- uyquchi,  
O'ylayverib-bedorsan.  
O'ziga yetmas kuchi,  
Sen qanaqa bemorsan?

\* \* \*

Umr qisqa, chopag'on,  
Izlaganin topag'on.  
Qoldirib ket otingni,  
Muhrlab hayotingni.

\* \* \*

Menga tabassum qil, yor.  
Tabassumda ertam naqd.  
Bir-birovga muhabbat  
Bilan boqmoqlikda baxt!

\* \* \*

Saxovat - saodatdir,  
Badbaxtlikdir baxillik.  
Saxiyga toqlik yotdir,  
Uyin bezar ahillik.

\* \* \*

Kuzda ko'char qushlarning  
Na don—suvi, yuki bor.  
Tavakkal deb Allohga,  
Yashash tarzin uqib bor.



## TAQDIR QIZIQ

Taqdir qiziq, dunyo qaytar,  
Menga biri sirin aytar.  
Men boshqaga sirim aytsam,  
Sirim sirlar bo‘lib qaytar.

\* \* \*

So‘ylaganda so‘ylasang,  
Kuylaganda—kuylasang,  
Xohishingga yarasha  
Yashasang, deyman,—Yasha!

\* \* \*

Dushmanni ham do‘st etar  
Har qanday damlar:  
Xushxulq, hushchiroy, xurram  
hotam odamlar!

\* \* \*

Ming og‘iz gapdan ko‘ra  
Bir nazar solganing bas.  
To‘xtab qolishdan ko‘ra,  
Shoshilmasdan ol hafas.

\* \* \*

O‘zim o‘zimga do‘stman,  
O‘zim o‘zimga dushman.  
Dushmanni bilmay do‘stdan,  
Dilgir dilimda pushmon.

\* \* \*

Hovuzi borning bo‘lsin balig‘i,  
Ko‘klab ko‘paysin mosh-u tarig‘i.  
U yo‘q, bu yo‘q, deb umringni xo‘rlar  
O‘g‘il-qizingning qovoq solig‘i.

\* \* \*

Mard odamni taniysiz har lahzada:  
Gapirmasdan ado etar ishini.  
Maydalanib orttirmas ming dahmaza,  
Hojatini chiqarar har kishining.

\* \* \*

Mardlik yurakdagi jasorat, zabtdir,  
O‘zbekchilikka chin ruhiy quvvatdir.  
Tog‘larni qarichlab o‘lchashga tayyor  
Mardlik—tilakdagi g‘alaba, taftdir.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/2526> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/2526> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно  
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/2526>